

ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Zayniddinova Sevinch Bekzod qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

szayniddinova582@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20075694>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslarida mustaqil ishlarni tizimli va samarali tashkil etishning nazariy-metodik asoslari tadqiq etilgan.

Tadqiqotda o'quvchilarda nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'naltirish hamda dars jarayonida ma'naviy-ma'rifiy inqilobiy yondashuvlarni qo'llash mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, yangi avlod darsliklari asosida o'quvchilarning lingvistik salohiyatini oshirishda o'qituvchining metodik mahorati va psixologik yondashuvining o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, mustaqil ish, metodik mahorat, nutqiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, milliy o'zlik, ma'naviy-ma'rifiy yondashuv, kommunikativ yondashuv.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методические основы системной и эффективной организации самостоятельной работы на уроках родного языка в общеобразовательных школах. В исследовании освещаются механизмы формирования у учащихся речевых и коммуникативных компетенций, ориентации на творческое и независимое мышление, а также применения духовно-просветительских подходов в учебном процессе. Также анализируется роль методического мастерства и психологического подхода учителя в повышении лингвистического потенциала учащихся на основе учебников нового поколения.

Ключевые слова: обучение родному языку, самостоятельная работа, методическое мастерство, речевая компетенция, творческое мышление, национальная идентичность, духовно-просветительский подход, коммуникативный подход.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations for the systematic and effective organization of independent work in Mother Tongue classes within secondary schools. The study highlights mechanisms for developing students' speech and communicative competencies, fostering creative and independent thinking, and implementing spiritual and educational approaches in the classroom. Additionally, it analyzes the role of a teacher's methodological expertise and psychological approach in enhancing students' linguistic potential based on new-generation textbooks.

Keywords: mother tongue education, independent work, methodological expertise, speech competence, creative thinking, national identity, spiritual-educational approach, communicative approach.

KIRISH. Bugungi axborot manbalari nihoyatda ko'p, rang-barang va tezkor bo'lgan sharoitda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchiga "ma'lumot yetkazish" emas, balki uni axborotni qayta ishlashga, uni tanqidiy baholashga, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotni farqlashga, o'z fikrini lingvistik jihatdan to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Ona tili darslari aynan shuni ta'minlash imkoniga ega bo'lgan eng qulay maydondir.

Shu sababli mazkur tadqiqot ishi hozirgi zamonaviy metodik yondashuvlar, kompetensiyaviy ta'lim talablari va adabiy til me'yorlari asosida ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning nazariy hamda amaliy imkoniyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning nazariy, metodik va amaliy jihatlari hisobga olinadi. Bu jarayon:

- a) ona tilidan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar silsilasi;
- b) shu bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar tizimi;
- c) ijodiy faoliyat usullari;

d) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Ona tilidan zaruriy bilimlar silsilasi bu bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan va o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan til materiallari tushunchalar, qoidalar, ta'riflar, o'quv topshiriqlardan iborat bo'ladi.

Bugungi o'zbek maktablarida o'quvchilarning til madaniyati, nutq kompetensiyasi va yozma savodxonlik darajasini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqilgan metodik talablarda o'quvchi nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, ijodiy yondashuvni rag'batlantirish eng ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan. Shunday ekan, "Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish" mavzusi o'zining nazariy, metodik va amaliy jihatlari bilan hozirgi ta'lim tizimi uchun nihoyatda dolzarbdir.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqot ishida ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy-metodik usullardan foydalanildi:

Tizimli tahlil va qiyoslash: Amaldagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari va o'quv dasturlari mustaqil ish topshiriqlari ko'lami bo'yicha tahlil qilindi. Oldingi va yangi darsliklar o'rtasidagi tafovutlar qiyoslandi. Yangi darsliklarning bugungi maktab o'quvchilari uchun yaratadigan imkoniyatlari e'tirof etildi.

Kommunikativ-faoliyatli yondashuv: Maqolada mustaqil ishlarni shunchaki mashq bajarish emas, balki nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi jarayon sifatida baholash metodikasi qo'llanildi. Bunda o'quvchining matn ustida ishlash va o'z fikrini mustaqil bayon etish qobiliyatiga asosiy urg'u berildi.

Pedagogik kuzatuv va modellashtirish: Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini boshqarishda o'qituvchining metodik mahorati va psixologik yondashuvi kuzatuv ostiga olindi. Mustaqil ishlarni tashkil etishning optimal modellari (ijodiy matn yaratish, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari) ishlab chiqildi.

Ma'naviy-ma'rifiy integratsiya: Til o'rgatish jarayonini milliy qadriyatlar va ma'naviy yuksalish bilan bog'lash usuli qo'llanildi. Bu orqali dars jarayonida o'quvchining ichki "men"ini uyg'otish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash mexanizmlari tadqiq etildi.

NATIJALAR. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishi va mustaqil fikrlashi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Yangi kompetensiyaviy yondashuvlar asosida shakllanayotgan ta'lim strategiyasi yosh avlodni erkin fikrlaydigan, ijodkor, bilimni o'zi izlab topadigan shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Xususan, mustaqil ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish nafaqat bilim olish, balki shaxsiy rivojlanish, ichki motivatsiya va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi. O‘zbekistonning hozirgi ta‘lim strategiyasida o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishi va mustaqil fikrlashi muhim o‘rin tutmoqda. Ta‘limda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi kompetensiyaviy yondashuvlar har bir o‘quvchini faolligi yuqori, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilmoqda.

Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, mustaqil o‘quv faoliyati shunday ta‘lim shakli, unda bilim olish bilan bir qatorda o‘quvchining malaka va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda shakllantirishi ta‘minlanadi. Demak, mustaqil ta‘lim – bu o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyati bo‘lib, uning davomida o‘quvchi o‘z ustida ishlash, o‘z bilim jarayonini boshqarish va nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xo‘sh, unda o‘rta ta‘lim muassasalarida mustaqil ishlarni tashkil etish bosqichlarining boshqa dars mashg‘ulotlaridan farqi nimada, degan savol tug‘ilishi mumkin, albatta. Bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, o‘quvchining mustaqil ravishda topshiriqni bajaradigan faoliyati hisoblanadi. Shu bilan birga o‘qituvchining ko‘magi ham o‘quvchining darslardan tashqari mavzuni yaxshi o‘zlashtira olayotganligidan xabardor bo‘lib turishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday holatlarda, asosan, o‘quvchilarning yosh darajasi, bilimi va saviyasidan kelib chiqqan holda topshiriq va vazifalar berilishi zarur. Ko‘pincha, mustaqil ishlarining maqsadlari o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

Mustaqil ish bilan qanday vazifalar hal qilinishi mumkin:

- a) Qoplangan materialni takrorlash;
- b) chuqurlashtirish va yangi bilimlarni egallash;
- c) nazariy ma‘lumotlarni birlashtirish;
- d) o‘rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish;
- e) amaliy ko‘nikmalar va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- f) bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- g) muayyan vazifalar yoki holatlarni hal qilish.

Lev Semyonovich Vigotskiy talabalarining mustaqil ishi uchun vazifalarning nafaqat turlarini, balki darajalarini ham hisobga olish muhimligini juda yaxshi tushuntiradi. Mustaqil ishning shunday asosiy uslubiy tamoyillari mavjud: **maqsadlilik, izchillik, muntazamlilik, mantiq, qulaylik, ilmiy** xarakterga ega [1;113]. Demak, o‘qituvchi oldindan e‘lon qiladigan, o‘quvchi ish jarayonida aniqlaydigan mustaqil ishning maqsad va vazifalari ana shu tamoyillarga mos kelishi kerak. An‘anaviy ravishda barcha turdagi vazifalar uch darajaga bo‘linadi:

- ✓ reproduktiv
- ✓ samarali
- ✓ ijodiy

kabi turlarga bo‘linadi. Mustaqil ta‘limning psixologik mohiyati o‘quvchining ichki motivatsiyasi va shaxsiy o‘sishi bilan bog‘liq. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga mustaqillik berilib, ularning tanlov va qarorlariga hurmat bilan yondashilganida, ularda ichki qiziqish ortadi, ta‘limdan rohatlanish hissi kuchayadi va bilim olishga bo‘lgan xavotir kamayadi. Shu bilan birga, o‘quvchilar bilim olish sabablarini “kerak bo‘lgani uchun emas”, balki “o‘zlari istagani uchun” deb ko‘rsata boshlaganlar. Bu esa ichki motivatsiyaning shakllanganidan dalolatdir.

Natijada mustaqil ta'lim oluvchilarning akademik natijalari ham yaxshilanganligi kuzatilgan. Shunday qilib, mustaqil ta'lim psixologik jihatdan o'quvchida o'z-o'ziga ishonch va ichki motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchining metakognitiv qobiliyatlari – o'z o'qish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalari shakllanadi.

MUHOKAMA. Mustaqil ta'lim tushunchasi ostida o'quvchining dars jarayonidagi faolligini oshiruvchi ta'limiy muammoni o'zi hal etishga qodir bo'lishini ta'minlovchi jarayon tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu o'quvchining ta'lim olishini o'zi boshqarishi demakdir.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchi o'z oldiga maqsadlar qo'yadi, zarur manbalarni mustaqil izlaydi, bilimlarni ongli ravishda egallaydi va amaliyotda qo'llaydi. Tadqiqotchilar mustaqil ta'limni "bilimni mustaqil ravishda egallash" hamda "ta'lim jarayonini boshqarish va unga javobgarlikni o'z zimmasiga olish" qobiliyati sifatida ta'riflaydilar.

Demak, o'quvchi ta'lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni oluvchi emas, balki bilimni izlovchi va kashf etuvchi subyektga aylanadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, mustaqil ta'lim o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mavzuni chuqurroq tushunish qobiliyatini maksimal darajada oshirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mustaqil ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning pedagogik va psixologik mohiyatini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Agarda 2019-yilda nashr etilgan ona tili darsligi bilan 2022-yilda nashr etilgan darslikni farqlaydigan bo'lsak, ular orasidagi o'xshashlikdan ham ko'p tafovutlarni ko'rishimiz mumkin.

Eski nashrdagi darsliklarning aksariyati nazariy bilimlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, yangi nashrdagi darsliklar ko'proq ijodiy faollikni oshirishga, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga, nutqni o'stirishga va bundan tashqari o'quvchilarni mustaqil rivojlanishini oshiruvchi mashq va topshiriqlardan iborat. O'quvchilar bu kabi darsliklar orqali nafaqat shu fanga oid bilimlarni egallaydi, balki fanlararo integratsiya yondashuvi asosida yaratilgan ilmiy va badiiy matnlar orqali yuqori bilim va salohiyatga ega bo'ladi [2;8].

XULOSA. Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tizimli tashkil etish, o'quvchini tayyor axborotni qabul qiluvchidan uni tahlil qiluvchi va kashf etuvchi subyektga aylantirishning asosiy mexanizmidir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va uning ichki motivatsiyasini uyg'otishga xizmat qiladi.

Yangi avlod darsliklarida ijodiy faollik va fanlararo integratsiyaga urg'u berilganligi o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Metodik mahorat bilan yo'naltirilgan mustaqil ishlar o'quvchida o'z-o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika-Press, 1996.
2. Ona tili: 6-sinf uchun darslik / I. Azimov, K. Mavlonova va boshq. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001.

4. To‘xliyev B., Shamsiyeva M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2006.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi portali (www.rtm.uz).
6. Ziyonet axborot-ta’lim tarmog‘i (www.ziyonet.uz).